



Vebsayt: <https://involta.uz/>

## O'QITUVCHILARDA PEDAGOGIK QOBILIYATLARNI SHAKLLANTIRISHINING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Abdulazizova Sevara Abdulaziz qizi**

Samarqand davlat chet tillar instituti magistranti

**Annotatsiya:** ushbu maqolada o'qituvchilardagi pedagogik qobiliyatlarning shakllanishi va uning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, o'qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyatlarning ahamiyati va pedagog sifatida unda lozim bo'lishi kerak bo'lgan pedagogik qobiliyatlar haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** O'qituvchi, pedagogik qobiliyat, ta'lim-tarbiya, qobiliyatlar, shaxs, namoyon bo'lish, faoliyat.

O'qituvchining ba'zi psixik jarayonlari unda shaxsga xos sifatlarning shunday kompleksini tashkil qiladiki, buni pedagogik qobiliyat deb atash mumkin. Bu qobiliyatlarni ayrim psixik xususiyatlardan iborat qilib qo'yish mumkin emas. Ta'lim-tarbiya ishlarining muvoffaqiyatli bo'lishi pedagog shaxsiga xos bo'lgan bir qancha sifatlarni, shu jumladan, uning irodasi, hissiyotlari, xarakteriga xos bo'lgan bir qancha xususiyatlarini ham ta'minlab beradi. K.D.Ushinskiy «Faqat shaxsgina shaxsning rivojlanishiga va tarkib topishiga ta'sir qilish mumkin, faqat xarakter ta'siri bilan xarakterni vujudga keltirish mumkin», - deb yozgan edi.

Garchi qobiliyatlarning rivoji har turli odamlarda mutlaqo bir xil bo‘lmagan tabiiy shart-sharoitlarga bog‘liq bo‘lsa ham, yuqorida ko‘rib o‘tilgan iste’dod nishonalari va qobiliyatlar o‘rtasidagi nisbat, qobiliyatlar shunchaki tabiat in’omi emas, balki kishilik tarixining mahsuli ekanligini ko‘rsatadi. Agar hayvonlarda oldingi avlod yutuqlarning keyingi avlodga o‘tkazib berilishi asosan organizmning irsiy morfologik o‘zgarishlari orqali amalga oshsa, insonda bu ijtimoiy-tarixiy yo‘l bilan, ya’ni mehnat quroli, til, san’at asarlari va shu kabilar yordami bilan amalga oshadi.

Har bir kishi estafetani qabul qilib olishi kerak — u qurollarni qo‘llashi, tildan foydalanishi, badiiy ijod asarlaridan baxra olishi kerak va hokazo. Odamlar tarixiy yutuqlar olamini egallab olgach, o‘z qobiliyatlarini tarkib toptiradilar. Qobiliyatlarning namoyon bo‘lishi odamlar tomonidan jamiyat ehtiyojlarini qondirish jarayonida tarixiy jihatdan ishlab chiqiladigan tegishli bilim va ko‘nikmalar shakllanishining konkret usullari (metodlari)ga bevosita bog‘likdir. Qobiliyat – shaxsning muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va uning ishini muvaffaqiyatli bajarishdagi sub’ektiv shart-sharoitni ifodalovchi individual psixik xususiyatlaridir.

O‘qituvchining kasbiy faoliyati favqulodda umumiy va xususiy qobiliyatlarni talab qiladi.

Kasbiy-pedagogik faoliyatning muvoffaqiyatli xususiy pedagogik qobiliyatlarga bog‘liq bo‘ladi. Pedagogik qobiliyatlar quyidagi guruhlariga ajratiladi:

- **Kommunikativlik** – insonlarga yuz tutishi, xayrxoqlik, muomalalik; (boshqa odamlar bilan buladigan muloqotni yaxshilaydigan va birgalikdagi faoliyatda psixologik qovushganlikni ta’minlaydigan qobiliyat.

- **Perseptiv qobiliyatlar** – idrok jarayonining asosiy tuzilishi birinchi bulib, idrok ob’ektlarini bilib olish va uni xotira obrazlari bilan solishtirishdan

iborat. Ya'ni idrok etish jarayonida bogchadagi bolani oldiga kubiklar quyilgan rasmlari bilan quyib chiqiladi. Bola uni solishtiradi.

- **Didaktik qobiliyat**- o'quvchilar bilan muloqot qilishda pedagogikaning ta'lim konuniyatlarini xamda metodlarini urgangan xolda ta'lim jarayonini amalga oshirish.

- **Empatiya qobiliyat**- boshqa odamlarning psixik xolatlarini tushunish va ularga xamdardlik qilishdir. (birgalikda dardlashmoq).

- **Konstruktiv** – o'qituvchining o'z ishini rejalashtira olishidir.

- **Bilish qobiliyati** – bilimni egallash va uni o'zlashtirishni ta'minlash.

- **Anglash (tushunish, xissiy barqarorlik)** – tushunib ongli xarakat qilish, uzini boshqara olish.

Pedagogning xususiy qobiliyatlariga bilim, malaka va ko'nikmalarni egallash faoliyati va shaxsni tarbiyalash qobiliyati ham tegishlidir.

O'qitish, o'rganish va o'rgatish bo'yicha qobiliyatlarga quyidagilar kiradi:

- O'quvchini tushunishni ko'rish va sezish, bunday tushunishning darajasini va xarakterini o'rnatish qobiliyati;
- o'quv materialini mustaqil tanlab olish, o'qitishning samara beruvchi usul va metodlarini belgilash qobiliyati;
- materialni yetarli bayon qilish, uning barcha talablariga tushunarligini ta'minlash qobiliyati;
- O'quvchilarning individualligini hisobga olgan holda o'qitish jarayonini tashkil etish qobiliyati;
- o'qitish jarayonida pedagogik taxnologiyalardan foydalanish qobiliyati;
- O'quvchilarning katta odimlar bilan rivojlanishini tashkil qilish qobiliyati;
- o'zining pedagogik mahoratini takomillashtirish qobiliyati;
- o'zining tajribasini boshqarish bilan baham ko'rish qobiliyati.
- mustaqil ta'lim olish va mustaqil takomillashishi qobiliyati.

Pedagogik jarayonga qaratilgan pedagogik qobiliyatlarga quyidagilar kiradi:

- boshqa insoning ichki holatini to'g'ri baholash, unga xamdardlik bildirish, hamnafas bo'lish qobiliyati (empatiya qobiliyat);
- taqlid qilish uchun namuna bo'lish qobiliyati;
- tarbiya jarayonida individual xususiyatlarni inobatga olish qobiliyati;
- muloqatning lozim topilgan uslubini, o'z o'rnini topish, kelisha olish qobiliyati;
- hurmat qozonish, o'quvchilar o'rtasida obro'ga ega bo'lish qobiliyati.

Pedagogik faoliyat o'z mohiyatiga ko'ra ijodiy xarakterga ega. O'qituvchining profesional odobi bu xususiyatni ham o'z ichiga oladi. Ma'lumki, inson oldida bir muammo turgandagina ijodkorlikka ehtiyoj tug'iladi. O'qituvchilik kasbi ana shunday xususiyatga ega. Chunki o'qituvchilik ishida hamma vaqt ham qo'llash mumkin bo'lgan tayyor qoida, retsept yoki shablonlar yo'q. Pedagog o'quvchi shaxsni shakllantiradi, kutilmagan vazifalarda mustaqil qarorlar qabul qiladi, pedagogik muammolarni yechadi, o'quv jarayonini mustaqil bajaradi. Bolalarning hammasida ijodkorlik mavjud. Pedagogik ijodkorlikning tub mohiyati ishning maqsadi va xarakteri bilan bog'liq.

Pedagogik ijodkorlik manbai – pedagogik tajribadir. Pedagogik tajriba deganda, o'qituvchining o'z vazifasiga ijodiy, yangicha yondashishi, o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasida yangi samarali yo'l va vositalarni qidirib topa bilish tushuniladi, ijodiy ishlaydigan o'qituvchi tadqiqotchilik ko'nikma va malakalariga ham ega bo'lishi zarur, chunki hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti o'qituvchining ijodkor bo'lishini, fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita olishi va nihoyat o'quvchilarni ham ijodiy fikrlashga, tadqiqot ishlariga o'rgatish va jalb etishni talab qiladi. O'qituvchining pedagogik odob madaniyati, obro'si qanchalik baland bo'lsa, ta'lim va tarbiya ishlari shunchalik samarali va ta'sirli bo'ladi.

Kommunikativ qobiliyat –bu pedagogik o'zaro aloqalar doirasidagi o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladigan muloqot qobiliyatidir.

Psixologiyaga oid adabiyotlarda kammunikativ qobiliyatlarning bir necha guruhlari farqlanadi:

1. ***Kishinig boshqa kishini bilishi.*** Bu qobiliyatlar guruhida kishiga shaxs sifatida, shaxsning aloxida qiyofasi, motivi va xatti-xarakatlariga baho berishi, kishining tashqi ko‘rinishi, xulqi va ichki dunyosi nisbatiga baho berishni, savlati, imo-ishora, mimika, pantomimikasini «o‘qiy» olishni qamrab olinadi.
2. ***Kishining o‘z-o‘zini bilish.*** U o‘z bilimini, qobiliyatlarini o‘z xarakteri va o‘z shaxsining boshqa qirralarini hamda tashqaridan va uning atrofidagi kishilar unga nisbatan qanday baxo berishi lozim bo‘lsa, shunday baho berishni ko‘zda tutadi.
3. ***Muloqot vaziyatini to‘g‘ri baholay olish.*** Bu vaziyatni kuzatish, uning ko‘proq axborot beradigan belgilarini tanlash va unga diqqatni jalb qilish; yuzaga kelgan vaziyatning sotsial va psixologik mundarijasini to‘g‘ri idrok etish va baholash qobiliyatidir.

Insonning o‘zini qurshab turgan olam bilan o‘zaro birgalikdagi harakati odamlar o‘rtasida ularning ijtimoiy hayoti va eng, avvalo ishlab chiqarish faoliyati jarayonida tarkib topadigan ob‘ektiv munosabatlar sistemasida yuz beradi. Ishlab chiqarmoq uchun odamlar bir-birlari bilan muayyan aloqa va munosabatlar, muloqotlar orqali bog‘laydilar va faqat shu ijtimoiy aloq va munosabatlar orqali ularning tabiatga nisbatan munosabatlari mavjud bo‘ladi. Ob‘ektivlik ya‘ni ob‘ektiv munosabatlar va aloqalar (bog‘langanlik, bo‘ysunganlik, hamkorlik, o‘zaro yordam munosabatlari va boshqalar) har qanday real guruhda muqarrar va qonuniyatli tarzda yuzaga keladi.

Xulosa qilib aytganda o‘qituvchilarda pedagogik qobiliyatlarning shakllanishi va rivojlanishida ta‘lim-tarbiya jarayonlari va ijtimoiy muhitning ahamiyati beqiyosdir

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Davletshin M.G., To‘uchiyeva S.M. O‘mumiy psixologiya. Toshkent, 2002.
2. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o‘qituvchisi psixologiyasi. Toshkent, 1998,
3. Саидов А. И., Жабборов И. А. Оилада ёшларнинг соғлом турмуш тарзи тўғрисидаги тасаввурлари шаклланишининг ижтимоий-психологик хусусиятлари //Образование. – Т. 8. – №. 9. – С. 10
4. Саидов А., Джураев Р. Баркамол авлодни тарбиялаш-соғлом турмуш тарзини шакллантиришда спортнинг ўрни //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 203-208
5. Ismailovich S. A. Socio-Psychological Problems of Educating an Independent-Minded, Creative Person in the Educational Process //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE. – 2021. – Т. 2. – №. 12. – С. 4-7
6. Ibragimovna Y. O. ORGANIZATION OF INDEPENDENT WORK OF STUDENTS AS A MEANS OF INCREASING THE PROFESSIONAL AND COMMUNICATIVE COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS //Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. – 2021. – Т. 1. – №. 1.5 Pedagogical sciences.
7. Ibragimovna O. Y. INTERFAOL TA‘LIM MODELI ASOSIDA TALABALARNING PROFESSIONALKOMMUNIKATIV MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH //INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. – 2021. – С. 319-322.
8. Ibragimovna Y. O. PROFESSIONAL TRAINING OF A FOREIGN LANGUAGE TEACHER IN NEW EDUCATIONAL CONDITIONS //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2020. – Т. 8. – №. 2.